

O'zbekistonda oilaviy bolalar uyining tashkil etilishi

Madinabonu Sabirova
Maftuna Nig'matullayeva
Sabrina Ro'ziyeva
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda oilaviy bolalar uyining tashkil etilishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, bolalar, shart-sharoit, qarovsiz, ota-ona, ariza

Establishment of a family orphanage in Uzbekistan

Madinabonu Sabirova
Maftuna Nigmatullayeva
Sabrina Roziyeva
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article presents ideas about the establishment of a family orphanage in Uzbekistan.

Keywords: family, children, conditions, neglect, parents, application

Oilaviy bolalar uylari bu ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlashning qulay sharoitidir.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalarni tarbiyalashning batamom yangicha tizimini joriy etish, bolalarni joylashtirishning oilaviy hamda boshqa muqobil shakllarini amaliyotga kiritish, ularni mustaqil hayotga tayyorlashning qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

Oilaviy bolalar uylari yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyaga olishni istagan fuqarolar tomonidan yuridik shaxs maqomisiz tegishli shahar hokimining qarori asosida tashkil etiladigan oilaviy bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilar soni 3-5 nafarni, lekin kamida 3 nafarni ko'pi bilan 5 nafarni tashkil qilish kerak. Bunda, oilaviy bolalar uyini tashkil qilgan fuqarolarning o'z farzandlari yoki tarbiyalanuvchilarning jami soni 8 nafardan oshmasligi kerak.

Oilaviy bolalar uylarining tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslarini a'lo baholarga tugatgan fuqarolar tomonidan tashkil qilishga ruxsat etiladi va oilaviy

bolalar uylari faoliyatini takomilashtirish va nazorat qilish Milliy gvardiya hamda tuman hokimliklari bolalarni himoya qilish uchun amalga oshiriladi.

Oilaviy bolalar uyini tashkil qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan fuqorolar tegishli joylardan vazirlik va idoralarning elektron hujjatlarni ba'zalaridan olish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni talab qilish qat'iyan man etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tomonidan viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 1-oy muddatda amalda yuridik shaxs maqomidagi tarbiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy bolalar uylarini yuridik shaxs maqomisiz qayta o'zgartirish va tashkil etish choralari ko'rilsin. Mazkur qarorga ko'ra, 1-bandida oilaviy bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilarning eng ko'p soniga o'rnatilgan cheklov va tarbiya muassasasi ushbu oilaviy bolalar uylaridagi tarbiyalanuvchilar 18 yoshga to'lgunigacha yoki boshqa sabablarga ko'ra, ketgunga qadar mazkur oilaviy bolalar uylarda qoladi.

Oilaviy bolalar uylarini tashkil qilmoqchi bo'lgan shaxslar uchun tutingan ota-onalar ro'liga tayyorlash kurslarini tashkil etish va ushbu jarayonga bilimli va malakali, shu jumladan chet-el mutaxassislarini jalb qilish choralari ko'rilsin. Jamoat xavfsizligi universiteti tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslari faoliyatini takomilashtirib borilsin. Oilaviy bolalar uylarini tashkil qilmoqchi bo'lgan shaxslar nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan tashkilashtirilgan tutingan ota-onalarni tayyorlash va takomilashtirish ularni o'qishi va tegishli sertifikatni olishi mumkin.

Oilaviy bolalar uyiga tarbiyaga olingan har bir nogironligi bo'lgan bolarga mehr ko'rsatish va davolash-sog'lomlashtirish uchun har oyda ba'zaviy 1 baravar miqdorida mablag ajratiladi.

Oilaviy bolalar uyi tuman hokimining qarori bilan tashkil etiladi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi Oilaviy bolalar uyini tashkil etishni uchun hoxlagan er-xotinning tegishli arizasi, vasiylik va homiylik organining, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tumanlar va shaharlar idoralararo komissiyasida er-xotinning tarbiyalovchi ota-onalar bo'lishi va bolalarni tarbiya qila olishga imkoniyati to'g'risidagi xulosasi tuman hokimining qarori qabul qilinishi uchun asos bo'la oladi.

Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotin o'zining turar joyidagi vasiylik va homiylik organlariga ariza bilan murojaat qilishlari lozim.

Arizada bo'lajak ota-onaning familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi, bolalari o'zlarining farzandlari yoki tarbiyalashga olgan bolalari mavjud bo'lgan taqdirda ularning soni va yoshi ko'rsatiladi.

Arizaga quyidagilar fakt qilinishi kerak: Ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarning, nikohdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari, ish va o'qish joyidan ma'lumotnoma, ishlamayotgan yoki belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilganlar uchun mahalliy mehnat organlarining ma'lumotnomasi va mehnat daftarchasidan ko'chirma (ish staji mavjud bo'lsa), oila

a'zolari ko'rsatilgan holda turar joyidan ma'lumotnoma, ota- ona sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq bo'lgan mulk huquqi, ijara shartlarida ijaraga olingan yoki boshqa qonuniy asoslarda yashash joy mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumot yoki hujjat tegishli uy joy mavjud bo'lmagan taqdirda arizada xizmat yashash joyi bilan ta'minlash zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Tibbiy komissiyasining er-xotinning sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumot kasal yoki sog'lomligi tog'risida xulosasi, psixiatriya va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari dispanseri ma'lumotnomalari olinadi.

Tarbiyalanuvchi asrab olish vaqtida er-xotinning shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotnoma yoki hujjatlari bo'lishi kerak. Oilaviy bolalar uyini maqomi, tashkil etish, bolalarni qabul qilish tartibi, tarbiyalavuchi ota-onalar va shunday uyalarga tarbiyalash uchun berilgan bolalarni huquqlarini belgilaydi.

Ota onasi qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalash, o'qitish, psixologik va jismoniy rivojlanish qulay sharoit yaratish, oilaviy bolalar uyini asosiy vazifasi.

Vasiylik va homiylik organlari bolalar uyini tashkil etishga yordam berish ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goziyev E.G. Mamatov M.M. va boshkalar "O'spirin psixologiyasi" ToshD.U. 1992.
2. Goziyev E.G Utanov B "Xamkorlik psixologiyasi" T., Tosh D.U. 1992
3. Lyaudis V.L. - Metodika prepodavaniya psixologii, iz.vo 2000.
4. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
5. Khaydarov S.A. (2023). Using technologies in teaching social sciences.
6. Хайдаров. С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение.
7. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference